

O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixiga bag'ishlangan anjuman o'tkazildi

2021-yil 26-fevral O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi bilan hamkorlikda akademik Yahyo G'ulomov nomidagi "O'zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi" respublika ilmiy seminarining "O'zbek xalqi va davlatchiligi tarixi hamda tarixshunosligi masalalari" mavzusida 77-umummilliy yig'ini o'tkazildi.



Umummilliy yig'ilishni Tarix instituti direktori tarix fanlari doktori, professor Azamat Ziyo kirish so'zi bilan ochib berdi. So'ngra Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti Bahrom Abduhalimov so'zga chiqib, anjumanni ishiga hamda ma'ruzachilarga muvaffaqiyat tiladi. Shundan so'ng ilmiy seminarning tartibiga ko'ra ushbu umummilliy anjumanni seminar raisi tarix fanlari doktori, professor Dilorom Alimova tomonidan olib borildi.



Ilmiy anjumanda Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan ijtimoiy-gumanitar yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilari hamda magistr va talabalar ishtirok etishdi.

Anjumanda Qadimgi Turon aholisining genetik shakllanishiga doir so'ngi natijalar, Fan tarixidagi yantuqlar, muammolar va yechimlar, o'zbek davlatchiligi tarixining o'rta asrlarga doir zamonaviy yondashuvlar, Mustamlakachilik davri tarixini o'rganishdagi yantuqlar, muammolar va yechimlar hamda O'zbekistonning eng yangi tarixini tadqiq etishdagi masalalar to'g'risidagi ma'ruzalar tinglandi.



Ma'ruzalar so'nggida qizg'in savol-javoblarga boy, yangicha qarashlar hamda yangi fikrlar asosida tarixchilarni qiziqtirgan masalalar atroflicha muhokama etildi.

Anjuman so'nggida akademik Ahmadali Asqarov, yetakchi olimlar Ahad Xo'jayev, Shavkat Saidov va boshqa mutaxassislar ma'ruzalar bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tishdi.